

"O'zkiyosanoat" Ajda "KITOBXON XODIM - 2022" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi

// 14.10.2022

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/kitobxon-zodim-2022-tanlovining-respublika-bosqichi>



Bugun "O'zkiyosanoat" Ajda 21-oktabr - O'zbek tili bayrami munosabati bilan "O'zkiyosanoat" Aj tarmoq korxonalari va tashkilotlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan "KITOBXON XODIM - 2022" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi bo'lib o'tdi.

Jamiyatning tarmoq korxonalari va tashkilotlarida bo'lib o'tgan bellashuvlarda g'olib bo'lgan 8 nafar kitobxon xodimlar ishtirok etgan final bosqichi 3 ta shartdan iborat bo'ldi.

Qiziqarli va muhosasiz o'tgan tanlovning respublika bosqichida "Dehqonobod kaliy zavodi" Aj vakili Karimova Gulnoza g'olib bo'ldi va faxrli 1-o'rinni egalladi. 2-o'rinni esa "Maxam-Chirchiq" Aj vakili To'ychiyeva Malika egalladi. "Navoiyazot" Aj vakili Mannopova Gulhayo 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Tanlov g'oliblariga maxsus statuetka, faxriy yorliq va pul mukofotlari uchun sertifikatlar topshirildi. Bellashuvlarda faol qatnashgan kitobxonlar esa faxriy yorliq va kitoblar to'plami bilan taqdirlanishdi.

Bu kabi ko'rik-tanlovlar "O'zkiyosanoat" Aj tizimida muntazam ravishda o'tkazib kelinadi. "Kitobxon xodim" tanlovi ham har yili o'tkazilishi belgilangan.















"O`zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati